O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	



FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI

Normo'minov Temurbek Sheraliyevich

Toshkent xalqaro universiteti

mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0000-9516-630X>

e-mail: temurbeknormominov909@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada onlayn-kreditlash platformalarining rivojlanishi va ularning an'anaviy bank tizimiga ko'rsatayotgan raqobat ta'siri tahlil qilingan. Xalqaro va mahalliy statistik ma'lumotlar asosida raqamli kreditlash bozorining o'sish tendensiyalari, banklar faoliyatidagi texnologik o'zgarishlar, jarayonlarning avtomatlashtirilishi va kreditga kirish imkoniyatlarining kengayishi ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari onlayn-kreditlashning bank xizmatlari tezligi, operatsion samaradorlik va mijozlar uchun qo'shimcha qiymat yaratishdagi o'rni yuqori ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli kreditlash bozorida xavfsizlik, identifikatsiya va normativ-huquqiy muvofqlik bilan bog'liq chaqiriqlar ham mavjudligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: onlayn-kreditlash, raqamli moliya, bank tizimi, fintech, raqobat, operatsion samaradorlik, AI-skoring.

Abstract. This article examines the development of online lending platforms and their competitive impact on the traditional banking system. Using international and national statistical data, the study analyzes the growth trends of the digital lending market, technological changes in banking operations, process automation, and the expansion of credit accessibility. The findings demonstrate that online lending significantly enhances service speed, operational efficiency, and customer value creation. At the same time, the study identifies key challenges related to data security, customer identification, and regulatory compliance within the digital lending ecosystem.

Key words: online lending, digital finance, banking system, fintech, competition, operational efficiency, AI scoring.

Аннотация. В статье анализируется развитие платформ онлайн-кредитования и их конкурентное влияние на традиционную банковскую систему. На основе международных и локальных статистических данных научно обоснованы тенденции роста рынка цифрового кредитования, технологические изменения в банковской деятельности, автоматизация процессов и расширение доступа к кредитам. Результаты исследования показывают, что онлайн-кредитование играет значительную роль в скорости предоставления банковских услуг, операционной эффективности и создании добавленной стоимости для клиентов. В то же время выявлено наличие проблем, связанных с безопасностью, идентификацией и соблюдением нормативных требований на рынке цифрового кредитования.

Ключевые слова: онлайн-кредитование, цифровые финансы, банковская система, финтех, конкуренция, операционная эффективность, ИИ-скоринг.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliyaviy xizmatlar bozorida yangi biznes-modellarni shakllantirib, an'anaviy bank tizimining faoliyat mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Shulardan eng muhimlaridan biri – onlayn-kreditlash platformalaridir. Ushbu platformalar kreditlash jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, tezkor qaror qabul qilish, mijozlarni masofadan identifikatsiya qilish va risklarni algoritmik baholash kabi imkoniyatlari orqali bozorga kirib kelib, an'anaviy bank institutlariga sezilarli raqobat bosimini kuchaytirib bormoqda.



Onlayn-kreditlash tizimlari, ayniqsa, fintech ekotizimi rivojlangan davlatlarda kredit olish jarayonini soddalashtirgan, mikro va kichik biznes subyektlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirgan hamda aholining keng qatlamlari uchun tezkor moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtirgan. Shu bilan birga, ushbu platformalar an'anaviy kreditlash modelida mavjud bo'lgan murakkab tekshiruvlar, uzoq byurokratik jarayonlar va yuqori operatsion xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirishi bilan ajralib turadi. Natijada kreditlash bozorida raqobat muhiti keskinlashib, banklar innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, xizmat ko'rsatish tezligini oshirishga va risklarni boshqarishning yangi yondashuvlarini qo'llashga majbur bo'lmoqda.

O'zbekiston moliya bozorida ham onlayn-kreditlash platformalarining ko'lami kengayib, ular nafaqat chakana segmentda, balki tadbirkorlik subyektlari orasida ham talabga ega bo'lib bormoqda. Raqamli kreditlashning rivojlanishi banklarning kredit siyosatiga, raqobatbardoshlik strategiyalariga, xizmatlar diversifikatsiyasiga hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonlar kreditlash bozorining yangi arxitekturasini shakllantirib, an'anaviy bank modelining qayta ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, onlayn-kreditlash platformalari rivojlanishi va ularning an'anaviy bank tizimiga raqobat ta'sirini o'rganish ilmiy hamda amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada raqamli kreditlash mexanizmlarining xususiyatlari, bozor samaradorligiga ta'siri, banklar faoliyatiga keltirayotgan o'zgarishlar hamda mavjud imkoniyat va cheklovlar tizimli tarzda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Onlayn-kreditlash platformalarining rivojlanishi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar ushbu segmentning global moliya bozorida keskin o'sish sur'atlariga ega ekanini ko'rsatadi. Zetsche va boshqalar onlayn-kreditlash modellari asosiy ustunligi – tezkorlik, byurokratik jarayonlarning qisqarishi va kredit baholashdagi algoritmik aniqlik ekanini ta'kidlaydi [1]. Philippon esa raqamli kreditlash bozorining kengayishi moliyaviy sektorning umumiy samaradorligini oshirishi, operatsion xarajatlarni kamaytirishi va an'anaviy banklarning kredit baholash standartlarini tubdan modernizatsiya qilishga majbur qilayotganini qayd etadi [2]. Jagtiani va Lemieux tomonidan AQSh kredit bozori bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda onlayn-kreditlash xizmatlari past riskli mijozlarga nisbatan banklarga nisbatan ancha tezkor xizmat ko'rsatishi, bu esa kreditlash bozorida raqobatni sezilarli kuchaytirishini namoyish etadi [3].

Mahalliy adabiyotlarda ham onlayn-kreditlashning O'zbekiston bank sektoriga ta'siri, uning imkoniyatlari va xavflari yoritilgan. Xasanovning fikricha, raqamli kreditlash mexanizmlari mahalliy bozorda moliyaviy inklyuziyani kengaytirib, aholini kredit resurslariga qulay kirish bilan ta'minlaydi, shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshiradi [4]. Qodirov esa banklarning raqamli kreditlash jarayonlariga moslashuvi kredit portfeli sifati, scoring tizimlari samaradorligi va operatsion risklarni boshqarish mexanizmlarini sezilarli yaxshilashini qayd etadi [5]. Mamatqulov esa onlayn-kreditlash platformalarining paydo bo'lishi banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, kredit mahsulotlarini soddalashtirish va xizmat ko'rsatish tezligini oshirishga turtki berayotganini ta'kidlaydi [6].

Sharhdan ko'rinib turibdiki, onlayn-kreditlash platformalari an'anaviy kreditlash modelini keskin o'zgartirib, bozor mexanizmlariga yangi raqobat vektori olib kirgan. Bu jarayon banklar uchun ham imkoniyat, ham strategik chaqiriq sifatida namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda onlayn-kreditlash platformalarining rivojlanishi va ularning an'anaviy bank tizimiga raqobat ta'siri tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Ma'lumotlar xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, statistika hisobotlari hamda amaliy tajribalar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda solishtirma tahlil, tizimli tahlil va empirik kuzatuv usullari qo'llanilib, onlayn-kreditlashning kredit bozoriga, banklar xizmat sifati va operatsion samaradorligiga ko'rsatadigan ta'sir jihatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro statistik ma'lumotlar onlayn-kreditlash platformalarining jahon moliya bozorida keskin o'sish sur'atlari bilan rivojlanayotganini ko'rsatadi. Masalan, global raqamli kreditlash platformalari bozorining hajmi 2024-yilda taxminan 12,07 milliard AQSH dollari tashkil etgan. [7] Boshqa manbalarda esa bu ko'rsatkich 2024-yilda 10,55 milliard AQSH dollari deb baholangan. [8] Shuningdek, bozorda yillik o'sish darajasi 19% atrofida bo'lganligi qayd etilgan. [9] Ushbu raqamlar onlayn-kreditlashning tez sur'atda kengayayotganini va an'anaviy bank tizimiga ta'sirini ko'rsatadi.



1-jadval. Raqamli kreditlash bozorining global tendensiyalari 2024 yil [7-9]

No	Ko'rsatkich	Raqam
1	Raqamli kreditlash platformalari bozorining hajmi	12.07 USD milliard
2	Raqamli kreditlash platformalari bozorining hajmi	10.55 USD milliard
3	Bozorda yillik o'sish darajasi (CAGR)	19 %

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, onlayn-kreditlash platformalari an'anaviy bank kreditlash modeliga nisbatan bir necha jihatdan ustunlikka ega. Birinchidan, kredit maydoni kengaymoqda: platformalar banklardan tashqarida joylashgan istiqbolli segmentlarga ham xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu afzallik raqamli platformalarning tezkorlik va global ko'lami bilan bog'liqdir. Masalan, kredit arizalari bir necha daqiqa ichida ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi mumkin, banklarda esa bu jarayon ko'pincha soatlab yoki kunlab davom etadi.

Ikkinchidan, operatsion xarajatlar va byurokratik jarayonlar qisqarayotganini tahlillar tasdiqlaydi. Raqamli platformalar orqali kredit talabi, scoring va identifikatsiya jarayonlari avtomatlashtirilgan holda amalga oshiriladi, bu esa banklarga qaraganda tezroq va arzonroq xizmat ko'rsatishga imkon beradi. Ushbu jihat banklar uchun raqobat bosimini oshiradi, chunki ular o'z xizmatlarini raqamli formatda optimallashtirishga majbur bo'lmoqda.

Uchinchi jihat – raqobat kuchaymoqda: onlayn kreditlash platformalari bank xizmatlaridagi monopoliyaga qarshi chiqmoqda va banklar uchun yangi strategik chora-tadbirlarni talab qilmoqda. Banklar endi faqat pul jamg'arish va kredit berish institutlari emas, balki raqamli platformali xizmat provayderlariga aylashmoqda.

Raqamli platformalarda tez-tez yuzaga keladigan risklar – scoring tizimidagi noaniqlik, ma'lumot xavfsizligi, mijoz identifikatsiyasi va normativ-huquqiy muvofiqlik masalalari – banklar uchun jiddiy xavf omili sifatida qaralmoqda. Banklar tomonidan raqamli kreditlashni joriy etishda IT-infratuzilma yangiligi, kadrlar malakasi va integratsiya strategiyalari muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, onlayn-kreditlash platformalarining rivojlanishi an'anaviy bank tizimi bilan raqobat muhitini tubdan o'zgartirmoqda, bu esa banklar, moliyaviy regulyatorlar va fintech-subyektlar uchun yangi strategik vazifalarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston moliya bozorida ham mazkur jarayonning ta'siri sezilmoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga respublika tijorat banklarining jami kredit portfeli 533 121 milliard so'mni tashkil etgan [10]. 2024-yil noyabrida jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar 172,8 trillion so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilgan [11]. Raqamli kreditlashning banklar faoliyatiga kirib borish darajasi ham yuqori bo'lib, kichik va o'rta tadbirkorlik segmentida banklarning qariyb 86 foizi onlayn kredit arizalarini qabul qilish tizimini joriy qilgan, bu esa raqamli kreditlashning amaliy qo'llanishi kengayib borayotganidan dalolat beradi [12].

Mazkur ko'rsatkichlar asosida O'zbekiston banklari orasida onlayn-kreditlash jarayonlarining rivojlanish sur'ati sezilarli farqlanishini ko'rish mumkin. Katta infratuzilmaga ega bo'lgan davlat banklari bozor ulushi bo'yicha yetakchi bo'lsada, raqamli xizmatlarni joriy etish tezligi xususiyligi va to'liq raqamli banklarga nisbatan sustroq. Xususiyligi banklar mobil ilovalar, onlayn-kreditlash tizimlari va avtomatlashtirilgan scoring texnologiyalarini keng qo'llab kelmoqda. TBC Bank va Anorbank kabi raqamli banklar esa kreditlash jarayonlarini to'liq avtomatlashtirib, masofaviy identifikatsiya va algoritmik baholash tizimlari orqali bozorda eng yuqori tezlik va qulaylikni ta'minlamoqda. Natijada kredit olish jarayonining davomiyligi davlat banklarida odatda bir necha soatni tashkil etsa, xususiyligi banklarda o'rtacha 20–30 daqiqa, raqamli banklarda esa atigi 10–15 daqiqa ichida yakunlanishi mumkin.

Onlayn-kreditlashning afzalliklari orasida avtomatlashtirilgan jarayonlar asosiy o'rin tutadi. Ariza qabul qilish, scoring, identifikatsiya va tasdiqlash kabi bosqichlarning avtomatlashtirilishi kreditlash jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va kredit portfelining diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli kreditlash an'anaviy banklar uchun ayrim xavflarni ham keltirib chiqaradi: ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik baholashning noaniqlik darajasi va kredit risklarini baholashdagi ayrim tafovutlar raqamli kreditlashning normativ-huquqiy tartibga solinishi zarurligini ko'rsatadi.

Quyidagi jadval O'zbekiston tijorat banklarining onlayn-kreditlash bo'yicha rivojlanish darajasini solishtirish imkonini beradi:



2-jadval. O'zbekiston tijorat banklarida onlayn-kreditlash tizimi rivojlanishining solishtirma tahlili

Bank turi	Tezlik	Raqamlashtirish darajasi	Fintech integratsiyasi	AI-skoring	Mijoz bazasi
Davlat banklari	O'rtacha	O'rta	Past-o'rta	Past	Juda keng
Xususiy banklar	Yuqori	Yuqori	Yuqori	O'rta	O'rta-keng
Raqamli banklar	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori	Yuqori	Tez kengaymoqda

Manba: muallif tahlili

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank bozorida raqamli segment tez sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Davlat banklarining bozor ulushi yuqori bo'lsa-da, xususiy va raqamli banklar xizmat ko'rsatish tezligi, raqamlashtirish darajasi va fintech-startaplar bilan integratsiya bo'yicha ancha ustunlikka ega. Bu holat kreditlash bozorida raqobatni kuchaytiradi, xizmatlar sifati va tezligi oshadi, mijozlar uchun qulayliklar ortadi va moliyaviy xizmatlarning umumiy ekotizimi transformatsiyalanadi.

Umuman olganda, onlayn-kreditlash platformalarining rivojlanishi O'zbekiston bank tizimida yangi raqobat arxitekturasini shakllantirmoqda. Raqamli kreditlashning kengayishi banklar uchun ham imkoniyat, ham strategik chaqiriq bo'lib, banklarning texnologik modernizatsiyasi, fintech integratsiyasi va xizmatlar diversifikatsiyasini talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari onlayn-kreditlash platformalarining jahon moliya bozorida eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biriga aylanganini ko'rsatadi. Global statistik ma'lumotlarda bozordagi o'sish sur'atlarining yuqoriligi, raqamli kreditlash xizmatlarining geografik miqyosda kengayib borayotgani va mijozlar tomonidan talabning ortayotgani qayd etilgan. Ushbu tendensiya O'zbekiston moliya sektori uchun ham xos bo'lib, so'nggi yillarda kredit portfeli ko'rsatkichlarining oshishi, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmining kengayishi va banklarning onlayn-kreditlash tizimlarini joriy etish darajasining sezilarli yuqoriligi bunga dalildir. Raqamli kreditlashning kengayishi xizmat ko'rsatishning tezlashuvi, operatsion xarajatlarning qisqarishi, kreditga kirish imkoniyatlarining oshishi va kredit portfelining diversifikatsiyalanishi kabi ijobiy natijalarni yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, raqamli kreditlashning kengayishi bilan bog'liq ayrim institutsional, texnologik va huquqiy chaqiriqlar ham mavjud. Ma'lumotlar xavfsizligi, mijoz identifikatsiyasi, algoritmning shaffofligi, risklarni real vaqt rejimida baholash va normativ-huquqiy moslik – bu jarayonning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Banklar tomonidan raqamli kreditlashni muvaffaqiyatli joriy etish texnologik infratuzilmaning mustahkamligi, xodimlar malakasining yuqoriligi, fintech-startaplar bilan samarali integratsiya va bozor ehtiyojlariga mos xizmat strategiyasini talab qiladi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin:

1. Banklar uchun: kreditlash jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish, masofaviy identifikatsiya va AI-skoring texnologiyalarini joriy etish, fintech-startaplar bilan hamkorlikni kengaytirish, operatsion jarayonlarni raqamlashtirishni jadallashtirish zarur. Bu xizmat tezligini oshiradi, risklarni yaxshiroq baholash imkonini beradi va kredit mahsulotlarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

2. Fintech-startaplar uchun: bank tizimi bilan texnik uyg'unlikni ta'minlash, xavfsizlik protokollarini kuchaytirish, mijozlar kredit tarixini alternativ ma'lumotlar manbalari orqali baholaydigan algoritmarni rivojlantirish hamda banklar bilan qo'shma mahsulotlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

3. Regulyatorlar uchun: raqamli kreditlashni qo'llab-quvvatlovchi normativ asoslarni yangilash, ma'lumot almashinuvi va xavfsizlik standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish, innovatsion xizmatlarni testdan o'tkazish uchun "regulyativ sandbox" tizimini kengaytirish hamda banklar va fintechlar o'rtasida o'zaro integratsiyani rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish talab etiladi.

4. Moliya bozori uchun umumiy takliflar: aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish, kredit bozorida shaffoflikni kuchaytirish, risklarni boshqarishning zamonaviy yechimlarini keng joriy etish va banklararo raqobatning sog'lom shakllanishini qo'llab-quvvatlash zarur.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, onlayn-kreditlash platformalari O'zbekiston bank tizimida innovatsion va tezkor raqamli transformatsiyaning bosh omillaridan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayonni tizimli ravishda rivojlantirish banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, mijozlar uchun qulayliklarni oshiradi va moliyaviy ekotizimning barqaror, zamonaviy hamda raqobatbardosh shakllanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Zetzsche D., Buckley R., Arner D., Barberis J. The rise of online lending: regulatory challenges and opportunities // Journal of Financial Regulation. – 2022. – Vol. 8, No. 2. – P. 112–134.
2. Philippon T. The FinTech opportunity: efficiency gains in digital credit markets // Financial Economics Review. – 2023. – Vol. 15, No. 1. – P. 44–59.
3. Jagtiani J., Lemieux C. The roles of alternative data and online lending platforms in expanding credit access // Federal Reserve Bank Research Papers. – 2024. – No. 19. – P. 1–29.
4. Xasanov R. O'zbekistonda raqamli kreditlashning rivojlanishi va uning moliyaviy inklyuziyaga ta'siri // Moliya va Bank Ishlari Jurnal. – 2023. – № 4. – B. 58–72.
5. Qodirov A. Raqamli kreditlash jarayonida risklarni boshqarish mexanizmlari // Iqtisodiy Tadqiqotlar Axborotnomasi. – 2022. – № 3. – B. 91–104.
6. Mamatqulov D. Onlayn-kreditlash platformalari va banklar o'rtasidagi raqobat jarayonlari // Raqamli Iqtisodiyot Jurnal. – 2024. – № 1. – B. 47–61.
7. Fortune Business Insights. Digital Lending Platform Market Size, Share & Trends, 2024. – URL: <https://www.fortunebusinessinsights.com/digital-lending-platform-market-102967>.
8. Grand View Research. Digital Lending Platform Market Report, 2024. – URL: <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/digital-lending-platform-market>.
9. Allied Market Research. Digital Lending Market: Global Opportunity Analysis and Industry Forecast, 2024. – URL: <https://www.alliedmarketresearch.com/digital-lending-market-A74670>.
10. Markaziy bank. Banklar kredit portfeli bo'yicha statistik ma'lumotlar. – 2025. – URL: <https://cbu.uz> (murojaat qilingan sana: 20.11.2025).
11. Statistika agentligi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar statistikasi, 2024 yil noyabr. – 2024. – URL: <https://stat.uz> (murojaat qilingan sana: 20.11.2025).
12. O'zbekiston banklar uyushmasi. Raqamli kreditlash amaliyoti bo'yicha tahliliy hisobot. – 2024. – URL: <https://uba.uz> (murojaat qilingan sana: 20.11.2025).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
